1-ilova - OLX Ko‘chmas mulk

USHBU ILOVA 24.05.2023 YILGA QADAR AMAL QILGAN

Ushbu Ilova Veb-saytning Foydalanuvchilari uchun “Ko‘chmas mulk” kategoriyasida mavjud bo‘lgan funksiyalardan foydalanish qoidalarini tartibga soladi.
Shubhali xollarda, ushbu Ilova Qoidalarning qolgan nizomlarini qo‘llashni istisno etmaydi. Xususan, ushbu Shartlarning nizomlari shikoyatlarni ko‘rib chiqish, Veb-saytning ishlash qoidalari, shaxsiy Profilning ishlash qoidalari, E’lonlarni joylashtirish qoidalari, shuningdek Pullik hizmatlarni sotib olish, noqonuniy va noo‘rin kontentni olib tashlash qoidalari doirasida ko‘rilishi kerak.

1. Mijozlar uchun “Ko‘chmas mulk” Kategoriyasiga joylashtirish Limitlari

- Mijozlar uchun “Ko‘chmas mulk” Kategoriyasida 2 ta bepul joylashtirish imkoni mavjud.
- Mijozlar uchun qo‘shimcha joylashtirishni sotib olish imkoni mavjud. Qo‘shimcha joylashtirish ma’lum bir e’lonni Limitdan tashqari nashr qilishga imkon beradi.

2. OLX Group istalgan vaqtda mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek Mijoz maqomini tasdiqlovchi shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

3. Biznes-foydalanuvchilari uchun “Ko‘chmas mulk” Kategoriyasiga joylashtirish Limitlari.

“Biznes” maqomiga ega foydalanuvchilar uchun **“**Ko‘chmas mulk” Kategoriyasida bepul joylashtirish mavjud emas.

4. Biznes-foydalanuvchilari uchun “Ko‘chmas mulk” Kategoriyasiga joylashtirish Paketlari.

“Ko‘chmas mulk” bo‘limida e’lonlarni joylashtirish uchun “Start” va “Premium” kategoriyalik 9 turdagi joylashtirish paketlari mavjud. Joylashtirish paketining hajmi: 15, 25, 50, 80, 100, 170, 250, 500 va 1000ta e’lonlar.

5. Biznes-foydalanuvchilari uchun Biznes-sahifa.

Joylashtirish paketini sotib olgan Biznes-foydalanuvchilari rivojlangan xususiyatlarga ega profilga - Biznes-sahifaga kirishlari mumkin.
Biznes-sahifa sozlamalarida kompaniya, vositachi, rieltor, yakka tartibdagi tadbirkor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘ldirish imkoniyati mavjud.
Asosiy biznes-sahifa uchun Start to‘plami sotib olinganda logotipni yuklash mumkin, Premium to‘plamlari sotib olinganda e’lonlar sahifasiga banner qo‘shish mumkin.
Biznes-sahifani to‘ldirish uchun quyidagi maydonlar mavjud:

1. Sahifaning nomi
2. Kompaniyaning nomi
3. Kompaniyaning tavsifi
4. Aloqa ma’lumotlari

Biznes-sahifa amal qilish muddati — oxirgi sotib olingan paketning tugaganidan keyin 30 kun davomida. Ushbu muddat tugaganidan so‘ng, Biznes foydalanuvchisi uchun faqat oddiy OLX sahifasining imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

6. Mijozlar va Biznes-foydalanuvchilari uchun e’lon joylashtirish qoidalari va e’lon sifatiga qo‘yiladigan talablar.

1. Kategoriya

E’lonlarda ular joylashtirilgan kategoriyaga mos kelishi kerak. Agar noto‘g‘ri kategoriya tanlangan bo‘lsa - e’lon o‘chiriladi.

2. Mavjud bo‘lmagan yoki noaktual ko‘chmas mulk obyektlari

OLXning “Ko‘chmas mulk” Kategoriyasida quyidagilar to‘g‘risida e’lonlar joylashtirish taqiqlanadi:

- mavjud bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari - Mijoz/Foydalanuvchiga tegishli bo‘lmagan obyektlarga potensial mijozlarning e’tiborini jalb qilishga qaratilgan e'lonlar yoki ushbu operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan “Biznes foydalanuvchi” tomonidan berilgan e'lonlar va/yoki Mijoz/Biznes foydalanuvchisiga tegishli bo‘lmagan fotosuratlar yuklangan e'lonlar;
- muomalada bo‘lgan kunida sotib olinishi yoki ijaraga olinishi mumkin bo‘lmagan, noaktual ko‘chmas mulk obyektlari (masalan, ular allaqachon ijaraga berilgan, ammo taklif aktual bo‘lib qolavergan e'lonlar).

“Ko‘chmas mulk” Kategoriyasida faqat mualliflik fotosuratlariga va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lgan haqiqiy, mavjud bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlari bo'yicha e'lon joylashtirilishi mumkin.
E’londagi ko‘chmas mulk obyekti aktual bo‘lishi kerak, ya’ni potensial mijozning so‘rovi vaqtida uni sotib olish yoki ijaraga olishning haqiqiy imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak.
Foydalanuvchilar tomonidan e’lon qilingan obyekt mavjud emasligi to‘g‘risida shikoyatlar kelib tushgan taqdirda, OLX Group e’lonni tahrirlash imkoniyatisiz olib tashlash huquqiga ega.
E’lonni qayta tiklash uchun Foydalanuvchi “Teskari aloqa shakli” yordamida OLX Groupning qo‘llab-quvvatlash hizmatiga murojaat qilishi kerak.
OLX Group ko‘chmas mulkning haqiqatdan mavjudligini tasdiqlash uchun, fotosuratlarning metama’lumotlarga ega asl nusxalarini yoki ko'chmas mulkning fonida e'lonning ID raqami chop etilgan qog'oz tasvirlangan fotosuratlarini talab qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Agar foydalanuvchi tomonidan tasdiq taqdim etilmasa, e’lon olib tashlanishi mumkin.

3. Ko‘chmas mulkning joylashuvi va manzili

E’londa aniq manzil ko‘rsatilishi kerak: Ko‘chmas mulk obyekti joylashgan joy, tuman, ko‘cha va uy raqami.

4. Narx

E’londa obyektning haqiqiy qiymati ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Shartli qiymat ko‘rsatilishi taqiqlanadi.
E’lon joylashtirilgan sarlavhaga ko‘ra narx quyidagi qoidalarga muvofiq ko‘rsatilishi kerak:

- Kvartiralar (sotish, ijaraga berish):
  Kvartirani yoki xonani sotish bo'yicha e'londa narx to‘liq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Bir kvadrat metr uchun narxni ko‘rsatish taqiqlanadi.
  Uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha e’lonlarning “Narx” maydonida 1 oylik ijara narxi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.
  Agar ko‘chmas mulk obyekti ma’lum bir kundan boshlab ijaraga berilsa, ushbu ma’lumot ham e’lon matnida ko‘rsatilishi kerak.

- Yer uchastkalari, Yangi binolar, Tijorat ko‘chmas mulki:
  Quruvchilar (yangi binolar)dan ko‘chmas mulkni, tijorat ko‘chmas mulkni, yer uchastkalarini ijaraga olish yoki sotishda narxni bir kvadrat metr yoki bir sotka uchun ko'rsatish mumkin.

5. Foto

E’longa faqat taqdim etilayotgan ko‘chmas mulkning fotosuratlari yuklanishi mumkin. Yuklangan fotosuratlarning maksimal soni — 12 dona.

“Ko‘chmas mulk” kategoriyasida quyida ko'rsatilgan fotosuratlarni yuklash mumkin emas:

- **fotosuratlar yuklanmagan e'lonlar** (barcha foydalanuvchilar uchun: jismoniy shaxslar, **biznes shaxslar, ko'chmas mulk agentliklari, quruvchilar va rieltorlar**);
- **internetdan olingan tayyor rasmlar** (barcha foydalanuvchilar uchun);
- mobil telefon/smartfon, planshet, noutbuk/shaxsiy kompyuterlardan olingan **ekran tasvirlari(skrinshotlar)**;
- sotuvga qo‘yilgan yoki ijaraga berilayotgan ko'chmas mulk obyekti tasvirlanmagan fotosuratlar;
- **matn yozilgan fotosuratlar** (fotosuratning 20% dan ortiq bo'lgan holda);
- ko‘chmas mulk obyektiga aloqasi bo‘lmagan fotosuratlar va tasvirlar;
- Diqqatni tortadigan so‘zlar: "Super tez sotaman", "Aksiya" so‘zlaridan iborat fotosuratlar;
- **Har qanday shakldagi aloqa ma'lumotlari** (raqobatdosh/taqiqlangan internet resurslariga havolalar, telefon raqamlari, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarning loginlari);
- boshqa e'lonlar doskasi saytining **logotiplari**;
- faqat logotip yoki brendning nomi tasvirlangan rasmlar
- UC Browser foydalanuvchilari uchun: "Menga yoqadi" logotipi va shu kabilar;
- odob-axloq nuqtai nazaridan noo'rin fotosuratlar;
- ko'chmas mulk obyekti narxi xorijiy valyutada ko'rsatilgan fotosuratlar;
- fotosurat o'rniga tashrifnomalarni yuklash.

6. Sarlavha

Sarlavha iloji boricha qidiruv so‘rovlariga mos kelishi kerak.
Unda asosiy ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- bitim turi (sotish, ijaraga berish);
- obyekt turi (kvartira, xona, uy, yer, taunxaus, villa va hokazolar);
- aniq manzil (mikrorayon, ko‘cha, mavze, xiyobon va uyning raqami).

Eng samarali sarlavha uchun misol: 2 xonali uyni ijaraga beraman, Bobur ko'chasi, 67

Sarlavhada quyidagilarni ko'rsatish taqiqlanadi:

- sarlavhani butunlay katta harflarda(CapsLockda) yozish;
- ma’nosi yo‘q so‘zlar;
- harfli bo‘lmagan belgilar (*^@<>), ko‘p undov (!!!!!) yoki so‘roq (????) belgilari;
- takrorlangan kalit so‘zlar va iboralar (teglar) to‘plami. (Qidiruv tizimlar ularni spam deb hisoblashi va ularni indekslamasligishi mumkin, bu e’lonning qidiruv natijalarida ko‘rinishiga imkon bermaydi.) Masalan, mana bunday ma’lumotlarni sarlavha sifatida

ko‘rsatish taqiqlanadi: «Saunali ajoyib uy. Mila (Petrushki, Mriya, Dmitrovka, Bucha, Turar joy) ";

7. Obyektning tavsifi

Obyekt tavsifida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatish taqiqlanadi:

- e’lon qilingandan tashqari bir nechta/boshqa ko‘chmas mulk obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- ma’nosiz va yozilgan matnni tushunishni qiyinlashtiradigan katta harflar, belgilar yoki simvollar;
- taqdim etilayotgan biznes hizmatlari ro‘yxati, ko‘chmas mulk obyektlari variantlari va hokazolar;
- reklama kanallariga oid ma’lumotlar, ijtimoiy tarmoqlarga, Telegram, Instagram, Facebook va boshqalardagi kanallar va guruhlarga havolalar.

8. Bir ko‘chmas mulk obyekti

Bir e’londa bitta ko‘chmas mulk obyektini joylashtirishga ruxsat beriladi
Agar ko‘chmas mulk obyekti bir nechta rejalashtirish variantlariga ega bo‘lsa, har bir rejalashtirish uchun alohida e’lon yaratilishi kerak.
Agar bir xil turdagi bir xil rejalashtirishli ko‘chmas mulk obyektlari taklif etilayotgan bo‘lsa (masalan, bitta turar-joy majmuasida), har bir aniq obyektni tavsifda belgilash yoki fotosuratda ajratish kerak.

9. E’lon sarlavhasi va tavsifining katta qismini tahrirlash

Boshqa har qanday obyektni reklama qilmoqchi bo'lsangiz, yangi e’lon yaratishingiz kerak bo'ladi.

10. Aloqa ma’lumotlari

“Ism” maydoniga e’lonni joylashtirishda o‘zingizning ismingizni yoki ismingiz va otangiz ismini ko‘rsatish kerak.

Ushbu maydonga quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatish taqiqlanadi:

- belgilar, raqamlar, aloqa telefon raqami, qisqartmalar, abbreviaturalar va shunga o‘xshash narsalar;
- “savdo bo‘limi”, “riyeltor”, “agent”, “agentlik”, “menejer”, “sotuvchi”, “egasi” va boshqa so‘zlar va iboralar.
- telefon raqamining imlosidagi har qanday belgilar, tarmoq operatorining kodini bildiruvchi qavslardan tashqari - “(” va “)”.
- “Telefon raqami” maydoniga e’lon joylashtirishda faqat e’lon muallifiga tegishli faol va amaldagi telefon raqamini ko‘rsatish kerak. Telefon raqami ushbu formatda ko'rsatilishi kerak: +998 ** *** ** ** yoki +998 kodni qoshmasdan yozsa bo'ladi, lekin operator kodi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

7. Talab (Спрос) turidagi e'lonlar.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan talabni aks ettiruvchi e’lonlarni (Ijaraga olaman, Sotib olaman, Bo‘lib to‘lashga sotib olaman, Olaman, Sovg‘a sifatida qabul qilaman, Izlayapman va hk) Saytga joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

8. Foydalanuvchi tomonidan Ko‘chmas mulk Kategoriyasidan foydalanish shartlarini buzilishi.

Agar hisob qaydnomasida yuqoridagi qoidabuzarliklarning birortasi aks etgan bir nechta e’lonlar topilsa - Foydalanuvchiga Ko‘chmas mulk Kategoriyasidan foydalanish shartlarini buzgan barcha e’lonlarni tahrir qilish to‘g‘risida xabar yuboriladi.

Agar Foydalanuvchi bunday xabarni olganidan so‘ng, Qoidalarni buzgan e’lonlar faol holda qolsa va / yoki Foydalanuvchi qoidabuzarliklar bilan yangi e’lonlarni nashr etishda davom etsa, Hisob qaydnomasiga kirish cheklanadi va Ko‘chmas mulk Kategoriyasidagi barcha e’lonlar rad etiladi.

Ko‘chmas mulk Kategoriyasidan foydalanish shartlari takroran buzilgan taqdirda, Hisob qaydnomasi qayta tiklanish imkoniyatisiz butunlay bloklanadi.

Hisob qaydnomasini bloklashda, OLX hisob raqamidan foydalanilmagan mablag‘lar qaytarilishi mumkin. Mablag‘lar, to‘lov amalga oshirilgan bank kartasiga qaytariladi. Mablag‘larni qaytarish tartibi va shartlari OLX.UZ Qoidalari bilan tartibga solinadi.

❗ Agar muammoingizni hal qila olmasangiz - **bizga telegram bot orqali murojaat qiling!**
Ish vaqti: Dushanbadan Jumagacha, 9:30 — 18:00.